Qabul qilindi: 17-noyabr 2026-yil • Ma’qullandi: 19-noyabr 2026-yil • Nashr qilindi: 21-noyabr 2026-yil

RAQAMLI PLATFORMALARDA NOQONUNIY KONTENT UCHUN JAVOBGARLIKNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING AYRIM MASALALARI

Yunusov Shaxzod Sherzod o‘g‘li
Toshkent davlat yuridik universiteti kiber huquqi magistranti
E-mail: shaxzodyunusov426@gmail.com
Bobonazarov Farhod Boymurodovich
Ilmiy rahbar

Annotatsiya. Mazkur maqolada raqamli platformalarda foydalanuvchilar tomonidan joylashtiriladigan noqonuniy kontent uchun javobgarlikni huquqiy tartibga solish masalalari tahlil qilindi. Raqamli platforma va axborot vositachisi tushunchalarining mazmuni, noqonuniy kontentning asosiy ko‘rinishlari hamda platforma javobgarligining nazariy modellari yoritildi. Shuningdek, AQSh, Yevropa Ittifoqi, Buyuk Britaniya va ayrim MDH davlatlarining tajribasi qiyosiy-huquqiy jihatdan ko‘rib chiqildi. O‘zbekiston qonunchiligidagi mavjud mexanizmlar, axborotga kirishni cheklash tartibi va onlayn platformalar faoliyatini tartibga solishga qaratilgan tashabbuslar tahlil qilinib, platformalar majburiyatlarini differensiatsiya qilish, xabardor qilish va choralar ko‘rish tartibini joriy etish, shaffoflik hamda sud nazoratini kuchaytirish yuzasidan takliflar ilgari surildi.

Kalit so‘zlar: raqamli platforma, axborot vositachisi, noqonuniy kontent, kontent moderatsiyasi, platforma javobgarligi, so‘z erkinligi, notice-and-action, Digital Services Act.

Abstract. This article examines the legal regulation of liability for illegal content uploaded by users on digital platforms. It discusses the concepts of digital platforms and information intermediaries, the main forms of illegal content, and theoretical models of platform liability. The approaches of the United States, the European Union, the United Kingdom and selected CIS countries are considered comparatively. The article also reviews

the existing legal framework in Uzbekistan, procedures for restricting access to information, and initiatives aimed at regulating online platforms. It proposes a differentiated system of platform obligations, a notice-and-action procedure, greater transparency, effective user appeal mechanisms and judicial oversight.

Keywords: digital platform, information intermediary, illegal content, content moderation, platform liability, freedom of expression, notice-and-action, Digital Services Act.

Аннотация. В статье анализируются вопросы правового регулирования ответственности за незаконный контент, размещаемый пользователями на цифровых платформах. Рассматриваются понятия цифровой платформы и информационного посредника, основные виды незаконного контента, а также теоретические модели ответственности платформ. На сравнительно-правовой основе изучается опыт США, Европейского союза, Великобритании и отдельных государств СНГ. Анализируются действующие механизмы законодательства Узбекистана, порядок ограничения доступа к информации и инициативы по регулированию онлайн-платформ. Предлагаются меры по дифференциации обязанностей платформ, внедрению процедуры уведомления и принятия мер, повышению прозрачности, обеспечению права пользователей на обжалование и усилению судебного контроля.

Ключевые слова: цифровая платформа, информационный посредник, незаконный контент, модерация контента, ответственность платформы, свобода выражения мнения, notice-and-action, Digital Services Act.

KIRISH

Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar, video-xostinglar, marketpleyslar va boshqa onlayn xizmatlar kundalik axborot almashinuvi hamda iqtisodiy munosabatlarning muhim infratuzilmasiga aylandi. Mazkur platformalar foydalanuvchilarga axborot yaratish, joylashtirish, tarqatish va o‘zaro muloqot qilish imkonini berishi bilan birga, noqonuniy mazmundagi materiallarning keng auditoriyaga tez tarqalishi xavfini ham yuzaga keltirmoqda. Shu sababli bunday kontent uchun kim va qanday shartlarda javobgar bo‘lishi masalasi zamonaviy axborot huquqining

dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Muammoning murakkabligi shundaki, noqonuniy kontentni bevosita foydalanuvchi yaratishi yoki joylashtirishi mumkin, biroq uni saqlash, ommaga yetkazish, tavsiya qilish va tarqalishini boshqarishda platformaning texnik hamda tashkiliy imkoniyatlari ham muhim o‘rin tutadi. Demak, javobgarlikni faqat kontent muallifiga yuklash yoki, aksincha, har qanday holatda platformani javobgar deb topish adolatli va samarali yechim bo‘la olmaydi. Huquqiy tartibga solish foydalanuvchi huquqlari, platformaning real nazorat imkoniyati va jamoat manfaatlari o‘rtasida mutanosib muvozanatni ta’minlashi lozim. O‘zbekistonda internet auditoriyasining kengayishi, ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish ko‘lamining ortishi hamda axborot xavfsizligi sohasidagi qonunchilik yangilanishlari ushbu masalaning amaliy ahamiyatini kuchaytirmoqda. Dissertatsiya materiallarida qayd etilgan ma’lumotlarga ko‘ra, internet foydalanuvchilari soni 2017-yildagi 14,7 milliondan 2025-yilda 32,7 millionga, Telegram foydalanuvchilari esa 28 millionga yetgani ko‘rsatilgan. Bunday ko‘lam platformalarning huquqiy maqomi va noqonuniy kontentga munosabatini aniq belgilash zaruratini yuzaga keltiradi.

Maqolaning maqsadi - raqamli platformalarda noqonuniy kontent uchun javobgarlikning nazariy-huquqiy asoslarini va xorijiy tajribani tahlil qilish, O‘zbekiston qonunchiligidagi muammoli jihatlarni aniqlash hamda huquqiy tartibga solishni takomillashtirishga doir takliflarni asoslashdan iborat.

ADABIYOTLAR SHARHI VA METODOLOGIYA

Raqamli platformalar va axborot vositachilarining javobgarligi masalasi xalqaro ilmiy adabiyotlarda turli yondashuvlar asosida o‘rganilgan. G.Frosio tahriri ostidagi “The Oxford Handbook of Online Intermediary Liability” to‘plamida vositachilar javobgarligining nazariy va amaliy modellari, turli yurisdiksiyalardagi huquqiy yondashuvlar tahlil qilingan[1]. M.Husovecning “Principles of the Digital Services Act” asari Yevropa Ittifoqida raqamli xizmatlar uchun belgilangan majburiyatlar, platformalar shaffofligi va foydalanuvchilarni himoya qilish mexanizmlarini o‘rganishda muhim manba hisoblanadi[2]. A.Kuczerawy vositachi javobgarligi va so‘z erkinligi o‘rtasidagi munosabatni tahlil qilib, kontentni cheklashda protsessual kafolatlar muhimligini ta’kidlaydi[3]. J.Riordan internet vositachilarining javobgarligi, ularning axborotni uzatish

va saqlashdagi vazifalari hamda javobgarlik asoslarini yoritad [4]. K.Klonick esa onlayn nutqni boshqarish jarayonida platformalarning qoidalari va moderatsiya mexanizmlariga e’tibor qaratadi[5]. MDH huquqshunosligida V.B.Naumov, I.M.Rassolov, V.V.Arxipov va A.I. Savelyevning ishlari internet huquqi, elektron tijorat va axborot vositachilari maqomini o‘rganishda ahamiyatlidir[6]. O‘zbekiston ilmiy adabiyotlarida esa ijtimoiy tarmoqlarni huquqiy tartibga solish, blogerning huquqiy maqomi va kiberjinoyatchilikka qarshi kurash masalalari yoritilgan. Shunga qaramay, raqamli platformaning noqonuniy foydalanuvchi kontenti uchun javobgarligini milliy va xorijiy tajriba bilan bog‘liq holda kompleks o‘rganish zarurati saqlanib qolmoqda. Tadqiqotda tarixiy, qiyosiy-huquqiy, tizimli-tuzilmaviy, formal-yuridik va mantiqiy tahlil usullaridan foydalanildi. Milliy qonunchilik normalari xalqaro standartlar hamda AQSh, Yevropa Ittifoqi, Buyuk Britaniya, Rossiya va Qozog‘iston tajribasi bilan qiyoslandi. Maqolaning manbaviy asosini dissertatsiya rejasida ko‘rsatilgan normativ-huquqiy hujjatlar, xalqaro hujjatlar, sud amaliyoti va ilmiy adabiyotlar tashkil etdi.



NATIJALAR

Avvalo, raqamli platforma va axborot vositachisi tushunchalarini farqlash muhim. Raqamli platforma - foydalanuvchilarga kontent joylashtirish, almashish yoki bitim tuzish imkonini beruvchi hamda ular o‘rtasida vositachilik qiluvchi onlayn xizmatdir. Axborot vositachisi esa boshqa shaxslar tomonidan yaratilgan axborotni uzatish, keshlashtirish yoki xosting orqali saqlash funksiyalarini bajaruvchi subyekt sifatida namoyon bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan, barcha platformalar bir xil faoliyat yuritmaydi: ayrimlari faqat texnik uzatishni ta’minlasa, boshqalari kontentni saralash, tavsiya qilish, reklama bilan bog‘lash yoki auditoriyaga yetkazish jarayonida faol rol o‘ynaydi. Platformaning huquqiy maqomini belgilashda uning kontent ustidan amaldagi nazorat darajasi, noqonuniylik haqida xabardor bo‘lgan-bo‘lmagani va xabar olingach oqilona choralar ko‘rgan-ko‘rmagani e’tiborga olinishi lozim. Yevropa Ittifoqi sudining L’Oréal v eBay ishida vositachining faol roli masalasi muhim mezon sifatida ko‘rilgan[10]. Bu yondashuv platformaning oddiy texnik vositachi yoki kontent tarqalishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatuvchi faol subyekt ekanini aniqlashga yordam beradi. Noqonuniy kontent tushunchasi ham aniq chegaralanishi kerak.

Bunday kontent - o‘zi yoki u bilan bog‘liq faoliyat amaldagi qonunchilikka zid bo‘lgan axborotdir. Unga ekstremistik va terroristik materiallar, bolalarga zarar yetkazuvchi yoki qonun bilan taqiqlangan axborot, tuhmat va haqorat, shaxsga doir ma’lumotlarni noqonuniy tarqatish, mualliflik huquqini buzuvchi materiallar hamda firibgarlik mazmunidagi e’lonlar kirishi mumkin. Shu bilan birga, zararli, biroq qonuniy kontentni noqonuniy kontent bilan aynanlashtirish mumkin emas. Kontentning ayrim auditoriyalar, xususan bolalar uchun nomaqbul bo‘lishi uning har doim ham qonunga xilofligini anglatmaydi. Noqonuniy kontentga qarshi kurashish choralari so‘z va axborot erkinligi kafolatlari bilan muvofiqlashtirilishi zarur. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 33-moddasi axborotni izlash, olish va tarqatish erkinligini kafolatlaydi, biroq ushbu huquq qonunda belgilangan asoslar doirasida cheklanishi mumkin. Bunday cheklov qonuniy maqsadga qaratilgan, zarur va mutanosib bo‘lishi, shuningdek, asossiz ravishda qonuniy axborot tarqalishini to‘xtatib qo‘ymasligi lozim. Platforma javobgarligining nazariy modellari bir necha ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. Qat’iy javobgarlik modelida platforma foydalanuvchi joylashtirgan noqonuniy kontent uchun keng doirada javobgar bo‘lishi mumkin. “Xavfsiz bandargoh” yondashuvi esa muayyan shartlar bajarilgan taqdirda vositachini foydalanuvchi kontenti uchun javobgarlikdan ozod etadi. To‘liq immunitet platformani bunday javobgarlikdan keng miqyosda himoya qilsa, ehtiyotkorlik majburiyati modeli platformadan xavflarni aniqlash, tegishli tartiblarni yaratish va qonuniy talablar bo‘yicha choralar ko‘rishni talab qiladi. Birgalikda tartibga solish modeli esa davlat, platforma va fuqarolik jamiyati ishtirokini nazarda tutadi.

Xorijiy tajriba ushbu modellar o‘rtasidagi farqni yaqqol ko‘rsatadi. AQShda Communications Decency Act qonunining 230-bo‘limi uchinchi shaxslar joylashtirgan axborot bo‘yicha platformalar uchun keng immunitet yondashuvini belgilaydi. Mualliflik huquqi sohasida DMCA qonunining 512-bo‘limi xabardor qilish va kontentni olib tashlash mexanizmini nazarda tutadi. Yevropa Ittifoqida esa 2022/2065-son Raqamli xizmatlar to‘g‘risidagi akt (DSA) vositachilar uchun xabardor qilish va choralar ko‘rish, shaffoflik, shikoyatlarni ko‘rib chiqish hamda yirik platformalar uchun qo‘shimcha majburiyatlarni belgilaydi[2]. Buyuk Britaniyaning Online Safety Act 2023 qonuni noqonuniy kontent bilan

bog‘liq xavflarni boshqarish va xizmat ko‘rsatuvchilarning ehtiyotkorlik majburiyatlariga urg‘u beradi. Germaniyaning NetzDG qonuni esa ayrim noqonuniy kontent bo‘yicha shikoyatlarni ko‘rib chiqish va choralar ko‘rish muddatlari bilan bog‘liq tajribani shakllantirgan. Rossiya qonunchiligida axborot vositachilari maqomi va javobgarligi, jumladan Fuqarolik kodeksining 1253.1-moddasi bilan tartibga solinadi. Qozog‘istonda 2023-yilda qabul qilingan “Onlayn platformalar va onlayn reklama to‘g‘risida”gi qonun mintaqaviy qiyoslash uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekiston qonunchiligida axborot tarqatish va unga kirishni cheklash masalalari bir qator normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi. Jumladan, “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi Qonunning 12-1-moddasi taqiqlangan axborot bilan bog‘liq talablarni belgilaydi. Vazirlar Mahkamasining 707-son qarori taqiqlangan axborot joylashtirilgan veb-saytlarga kirishni cheklash tartibiga taalluqlidir. Shuningdek, 807-son qarorda sayt egalari va blogerlarga taqiqlangan axborotni olib tashlash to‘g‘risida xabarnoma yuborish tartibi nazarda tutilgan. Shaxsga doir ma’lumotlarni himoya qilish, bolalarni zararli axborotdan muhofaza etish va ekstremizmga qarshi kurashish sohasidagi qonunlar ham noqonuniy kontentning alohida turlariga nisbatan qo‘llanadi. Dissertatsiya materiallarida 2026-yilda qabul qilingan O‘RQ-1115 va O‘RQ-1185-son qonunlar bilan bog‘liq o‘zgarishlar ham qayd etilgan. Ushbu hujjatlar sun’iy intellekt orqali shaxsga doir ma’lumotlarni noqonuniy qayta ishlash va ekstremistik materiallar bilan bog‘liq javobgarlik mexanizmlarining rivojlanayotganini ko‘rsatadi. Tahlil natijasida platforma javobgarligini takomillashtirish uchun quyidagi yo‘nalishlar muhim, degan xulosaga kelindi: birinchidan, platformalarni auditoriya hajmi va faoliyat xususiyatiga qarab toifalash; ikkinchidan, har bir toifa uchun majburiyatlarni mutanosib belgilash; uchinchidan, noqonuniy kontent haqida xabar berish va xabar asosida chora ko‘rishning aniq tartibini joriy etish; to‘rtinchidan, foydalanuvchiga kontentni o‘chirish yoki cheklash qarori ustidan shikoyat qilish imkonini berish; beshinchidan, kirishni cheklash choralarini samarali sud nazorati bilan ta’minlash. 1-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, platforma javobgarligini takomillashtirishda toifalash, shaffoflik, tezkor munosabat bildirish hamda sud nazoratini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu mexanizmlar foydalanuvchilar huquqlarini himoya qilish va platformalar

faoliyatida qonuniylikni ta’minlashga xizmat qiladi.

1-jadval.

Platforma javobgarligini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari

Yo‘nalish	Mazmuni	Kutiladigan huquqiy natija
Platformalarni toifalash	Auditoriya hajmi, xizmat turi va kontent ustidan nazorat darajasini hisobga olish	Majburiyatlarning mutanosib taqsimlanishi
Notice-and-action	Foydalanuvchi xabari, uni ko‘rib chiqish, asoslantirilgan qaror va muddatlarni belgilash	Noqonuniy kontentga tezkor va tartibli munosabat
Shaffoflik	Kontentni cheklash, shikoyatlar va davlat organlari so‘rovlari bo‘yicha hisobotlar	Platforma faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati
Apellyatsiya va sud nazorati	Foydalanuvchining qaror ustidan shikoyat qilish huquqi va cheklov choralarining sud tomonidan tekshirilishi	Asossiz o‘chirish va ortiqcha cheklovlarning oldini olish

1-jadvalda platforma javobgarligini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari, ularning mazmuni hamda kutiladigan huquqiy natijalari yoritilgan. Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, platformalarni toifalash, noqonuniy kontentga nisbatan tezkor choralar ko‘rish, faoliyat shaffofligini ta’minlash hamda apellyatsiya va sud nazoratini kuchaytirish samarali huquqiy tartibga solishning muhim mexanizmlari hisoblanadi. Mazkur yo‘nalishlarni o‘zaro uyg‘unlashtirish platformalar faoliyatida javobgarlikni oshirish, foydalanuvchilarning huquq va manfaatlarini himoya qilish hamda asossiz cheklovlarning oldini olishga xizmat qiladi.

MUHOKAMA

O‘tkazilgan tahlil shuni ko‘rsatadiki, raqamli platformalarda noqonuniy kontent uchun javobgarlik masalasini faqat kontentni o‘chirish majburiyati bilan cheklash yetarli emas. Huquqiy mexanizm platformaning axborot vositachisi sifatidagi vazifasini, uning kontentga ta’sir darajasini, noqonuniylik haqida xabardor bo‘lish holatini va ko‘rilgan choralar mutanosibligini birgalikda baholashi kerak. Ayniqsa, platformaning oddiy texnik vositachilikdan faol moderatsiya va tavsiya qilish faoliyatiga o‘tishi uning huquqiy mas’uliyatini belgilashda alohida ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchi muhim masala - noqonuniy kontent va zararli, ammo qonuniy axborot

o‘rtasidagi chegarani aniq belgilashdir. Ushbu tushunchalar aralashtirilsa, platformalar ortiqcha ehtiyotkorlik sababli qonuniy materiallarni ham olib tashlashi mumkin. Bu esa so‘z erkinligi va axborot olish huquqiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois kontentni cheklash qarori qonuniy asosga, tushunarli mezonlarga va foydalanuvchiga yetkaziladigan asoslantirilgan izohga ega bo‘lishi lozim.

Uchinchi jihat - platformalar uchun bir xil darajadagi majburiyatlarni belgilashning maqsadga muvofiq emasligidir. Kichik auditoriyaga ega xizmat bilan millionlab foydalanuvchilar foydalanadigan yirik platformaning texnik, moliyaviy va tashkiliy imkoniyatlari bir xil emas. Shu sababli majburiyatlarni platforma ko‘lami va xavf darajasiga qarab differensiatsiya qilish xalqaro tajribaga hamohang yondashuv bo‘ladi. Xabardor qilish va choralar ko‘rish mexanizmi aniq protsessual kafolatlar bilan mustahkamlanishi zarur. Xabarda noqonuniy deb topilayotgan materialning manzili, huquqiy asosi va shikoyat qiluvchining aloqa ma’lumotlari ko‘rsatilishi; platforma esa murojaatni xolis ko‘rib chiqib, qarorini asoslantirishi lozim. Foydalanuvchiga qaror ustidan ichki tartibda shikoyat qilish imkoniyati berilishi, zarur hollarda esa sudga murojaat qilish huquqi saqlanishi kerak.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, raqamli platformalarda noqonuniy kontent uchun javobgarlikni huquqiy tartibga solish kompleks yondashuvni talab qilishini ko‘rsatdi. Raqamli platforma va axborot vositachisi tushunchalarini aniq farqlash, noqonuniy kontentni zararli, ammo qonuniy axborotdan ajratish hamda platformaning kontent ustidan real nazorat darajasini hisobga olish javobgarlik chegaralarini belgilashda asosiy mezon bo‘lishi lozim. Xorijiy tajriba AQShda immunitetga, Yevropa Ittifoqida esa vositachilar majburiyatlari, shaffoflik va xabardor qilish tartiblariga urg‘u berilishini ko‘rsatadi. O‘zbekiston sharoitida ushbu yondashuvlarning ijobiy jihatlarini milliy qonunchilik va so‘z erkinligi kafolatlari bilan uyg‘unlashtirish maqsadga muvofiq. Shu asosda quyidagi takliflar ilgari suriladi: 1) raqamli platformalarni auditoriya hajmi va faoliyat xususiyatiga ko‘ra toifalash; 2) “xabardor qilish va choralar ko‘rish” tartibini qonunchilikda aniq belgilash; 3) platformaning javobgarligini noqonuniylik haqida haqiqiy xabardor bo‘lishi va tegishli choralarni ko‘rish imkoniyati bilan bog‘lash; 4) umumiy monitoring majburiyatini yuklashdan tiyilish; 5) shaffoflik

hisobotlari, foydalanuvchining shikoyat va apellyatsiya huquqi hamda sud nazoratini mustahkamlash. Mazkur takliflar platformalar faoliyatining huquqiy aniqligini oshirish, noqonuniy kontentga qarshi samarali kurashish va axborot erkinligini asossiz cheklashning oldini olishga xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Frosio G. (ed.). The Oxford Handbook of Online Intermediary Liability. - Oxford: Oxford University Press, 2020.

2. Husovec M. Principles of the Digital Services Act. - Oxford: Oxford University Press, 2024.

3. Kuczerawy A. Intermediary Liability and Freedom of Expression in the EU: From Concepts to Safeguards. - Cambridge: Intersentia, 2018.

4. Riordan J. The Liability of Internet Intermediaries. - Oxford: Oxford University Press, 2016.

5. Oqyulov O., Yuldashev J.I., Imomov N.F. Fuqarolik huquqiga kirish. - Toshkent: Yuridik adabiyotlar Publish, 2025. - 728 b.

6. Архипов В.В. Интернет-право: учебник и практикум. - М.: Юрайт, 2016.

7. Saydullayev Sh.A. Davlat va huquq nazariyasi. - Toshkent: Yuridik adabiyotlar Publish, 2021. - 248 b.

8. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - 2023-yil 1-maydan kuchga kirgan yangi tahrir.

9. Topildiyev V.R. Fuqarolik huquqi. Umumiy qism. - Toshkent: Yuridik adabiyotlar Publish, 2022. - 592 b.

10. Tahirov B.N. Axborot xavfsizligi asoslari. - Buxoro: Fan va ta’lim, 2022. - 156 b.